

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
Institut Kengashining 7-sonli majlisida ko'riladigan ma'ruzalarning
matni va qaror loyihalari
2022-yil 23 fevral

Kun tartibi:

1. Xorijiy hamkorlik, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta'lim muassasalri bilan yaqin hamkorlik aloqalari va amalga oshirilayotgan ishlar.
Ma'ruzachi: Xalqaro hamkorlik ishlari prorektori t.f.n., dotsent B.X.Yarmuhamedov
2. Iqtidorli talabalar bilan ishlash haqida.
Ma'ruzachi: Iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i M.Z.Atadjiyeva
3. 2021-2022 o'quv yili Yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik borasida bajariladigan ishlar
Axborotchi: O'quv –uslubiy bo'lim boshlig'i t.f.n., dotsent Tastanova G.E.
4. Institut xotin-qizlar kengashining faoliyati
Axborotchi: Institut xotin-qizlar kengashi raisi F.A.Shamuhamedova
5. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
6. Turli masalalar

1-masala. Xorijiy hamkorlik, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta'lim muassasalri bilan yaqin hamkorlik aloqalari va amalga oshirilayotgan ishlar.

Ma'ruzachi: Xalqaro hamkorlik ishlari prorektori t.f.n., dotsent B.X.Yarmuhamedov

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ – 2909-sonli “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot choralari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ – 3151 – son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4310 - son “Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxtlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli Qarorlarini ijrosini bajarish maqsadida 2021 yilda 119 nafar xorijiy professor - o'qituvchilar TDSI da masofaviy ma'ruza va amaliyot o'tkazishdi.

Jumladan: Vatikandandan - 3 nafar, Janubiy Koreyadan - 5 nafar, Finlyandiyadan – 8 nafar, Qozog'iston Respublikasidan - 25 nafar, Rossiya Federatsiyasi - 40 nafar, Belarus Respublikasidan - 9 nafar, Italiyadan - 2 nafar, AQShdan – 6 nafar, Kanadadan – 1 nafar, Chexiyadan – 2 nafar, Turkiyadan – 1 nafar, Xindistondan - 9 nafar, Portugaliyadan – 1 nafar, Misrdan – 2 nafar, Angliyadan – 2 nafar va Germaniyadan – 1 nafar.

Shulardan 51 nafari qisqa va uzoq muddatli dars jarayoniga jalb qilingan: AQSh dan – 2 nafar, Italiyadan – 2 nafar, Rossiya Federatsiyasidan - 9 nafar, Qozog'iston Respublikasidan - 17 nafar, Janubiy Koreyadan - 4 nafar, Turkiyadan - 1 nafar, Xindistondan - 1 nafar, Gretsiyadan – 1 nafar, Pokistondan – 1 nafar, Buyuk Britaniyadan – 2 nafar, Portugaliyadan – 1 nafar, Germaniyadan – 1 nafar, Finlyandiyadan – 2 nafar.

55 nafar PO' ma'ruzalari o'qishdi, 56 nafari onlayn konferentsiyalarda ishtirok etishdi, 5 nafari tashkiliy ishlar bo'yicha muzokaralar olib borgan.

2021 yilda 10 ta Memorandum imzolangan. Shulardan: Rossiya Federatsiyasi – 2ta, Tojikiston – 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 3 ta, Kirgiston – 1 ta, Portugaliya – 1 ta, Turkiya – 2 ta.

2022 yilda 18 nafar xorijiy professor - o'qituvchilar TDSI da masofaviy ma'ruza va amaliyot o'tkazishdi.

Jumladan: Turkiyadan – 3 nafar, AQShdan - 1 nafar, Italiyadan – 1 nafar, Rossiya Federatsiyasidan - 15 nafar, Braziliyadan – 1 nafar.

Shulardan 5 nafari qisqa va uzoq muddatli dars jarayoniga jalb qilingan: Rossiya Federatsiyasidan - 2 nafar, Italiyadan – 1 nafar, Turkiyadan - 2 nafar, Braziliyadan – 1 nafar.

16 nafar PO' onlayn ma'ruza o'qishdi. 41 nafari onlayn konferentsiyada ishtirok etishdi.

**2021 yil uchun TDSIda dars berayotgan xorijlik professor-o'qituvchilar
(bir oy va undan ortiq bo'lgan muddatdagi)
RO'YXATI**

t/r	Xorijiy o'qituvchilarning F.I.Sh (alfavit tartibida to'liq yoziladi).	Davlati va ish joyi	Mutaxassisligi	O'zbekiston OTMida dars beradigan fani	Asos (buyruq, qaror, shartnoma va boshqalar)*
1	Abdrazakov Yerbolat Xaltovich	Qozog'iston, Al Farobi nomidagi milliy universiteti	Stomatologiya	Ortopedik stomatologiya	07.12.2021 y.№527
2	Amxadova Malkan Abdrashidovna	Rossiya,Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrası soatbay professori	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	26.01.2021 №56
3	Annina Kangas Niemi	Finlyandiya,Jamoat salomatligi va SSTQ va jismoniy ma'daniyat kafedrası dotsenti	Jamoat salomatligi	Jamoat salomatligi va SSTQ va jismoniy ma'daniyat	16.02.2020 2021 № 500
4	Baktibaeva Annel Tleumagambetqizi	Qozog'iston,O'zbek tili va xorijiy tillar kafedrası jamoatchilik asosida professor	O'zbek tili va xorijiy tillar	O'zbek tili va xorijiy tillar	08.02.2021 №91
5	Belenova Irina Aleksandrovna	Rossiya,Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrası soatbay professori	terapevtik stomatologiya	terapevtik stomatologiya	26.01.2021 №56
6	Belenova Irina Aleksandrovna	Rossiya, N.N.Burdenko nomidagi Voronej davlat tibbiyot universiteti	Terapevtik stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	514AF 7.12.2021
7	Belenova Irina Aleksandrovna	Rossiya, N.N.Burdenko nomidagi Voronej davlat tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Prof.stom	513AF 7.12.2021
8	Grigoryeva Alla Aleksandrovna	Rossiya,Otolaringologiya kafedrası soatbay professori	Otolaringologiya	Otolaringologiya	08.02.2021 №91
9	Danko Lyubomirov Konstadinov	Angliya,Qirollik koledj shifoxonasi professori	Onkologiya	Onkologiya	18.09.2021 №527

10	Daurexanov Asatay Mametovich	Qozog'iston, Fiziologiya va patologiya kafedrası jamoatchilik asosida professor	Fiziologiya va patologiya	Fiziologiya va patologiya	02.02.2021 №69
11	Diego Jianantonio Lops	Italiya, Jarroxlik stomatologiya va dental implantologiya kafedrası soatbay professori	Jarroxlik stomatologiya	Jarroxlik stomatologiya va dental implantologiya	02.02.2021 №69
12	Yermuxanova Guljan Tlumuxanovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Bolalar terapevtik	02.02.2021 y. №132
13	Yesirkepov Asilbek Abdrasilovich	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Ortopedik stomatologiya	07.12.2021 y № 526
14	Junusova Aynur Sogindikovna	Qozog'iston, Qozog'iston shahar shifoxonasi bolalar LOR onkologi	Onkologiya	Opuxali LOR organov u detey	440 AF
15	Junusova Gulnur Sogindikovna	Qozog'istonning molekulyar genetika laboratoriya boshlig'i	Genetik	Opuxali LOR organov u detey	440 AF
16	Ishigov Ibragim Agaevich	Qozog'iston, Fiziologiya va patologiya kafedrası jamoatchilik asosida professor	Tibbiy vva biologik kimyo	Tibbiy vva biologik kimyo	11.02.2021 № 94
17	Kim Jong Vu	Janubiy Koreya, Xirurgiya va xarbiy dala jarroxligi kafedrası jamoatchilik asosida professor	Xirurgiya va xarbiy dala jarroxligi	Xirurgiya va xarbiy dala jarroxligi	02.02.2021 № 94
18	Kopbaeva Mayra Taytoleuovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti terapevtik stomatologiya kafedra professori	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	515AF 7.12.2021
19	Kun Vu Li	Janubiy Koreya Yonsey Universiteti stomatologiya kolleji	Ortopedik stomatologiya	Ortopedik stomatologiya	12.03.2021 №153
20	Lomiashvili Larisa Mixaylovna	Rossiya, Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrası soatbay professori	Stomatologiya	terapevtik stomatologiya	02.02.2021 №56
21	Maykl Garri Martini	AQShning G'arbiy saraton markazi va ilmiy tekshirish instituti Memfis ilmiy tekshirish	Onkologiya	Onkologiya	18.09.2021 №527

		instituti professori t.f.d., vrach-onkolog			
22	Manak Tatyana Nikolaevna	Belarussiya,Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrasi soatbay professori	Stomatologiya	terapevtik stomatologiya	26.01.2021 №56
23	Maslak Yelena Yefimovna	Rossiya Federatsiyasi, Volgograd davlat tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Bolalar terapevtik stomatologiya	07.12.2021 y. №528
24	Menjanova Dana Donatovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti xirurgik stomatologiya kafedra mudiri yordamchisi	Stomatologiya	Xirurgik stomatologiya	512Af 7.12.2021
25	Menchisheva Yuliya Aleksandrovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti xirurgik stomatologiya kafedra mudiri	Stomatologiya	Xirurgik stomatologiya	509Af 7.12.2021
26	Mirzakulova Ulmeken Raximovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti xirurgik stomatologiya kafedra professori	Stomatologiya	Xirurgik stomatologiya	510AF 7.12.2021
27	Mitronin Aleksandr Valentinovich	Rossiya, .I.Evdokimova nomidagi Moskva davlat tibbiyot va stomatologiya universiteti	Stomatologiya	Kariesologiya Endodontiya	519AF 7.12.2021
28	Morozova Yuliya Yevgenyevna	O'zbekiston,Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrasi soatbay professori	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	26.01.2021 №56
29	Omarova Baxit Aymirzaevna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	516AF 7.12.2021
30	Aymirzaevna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	516AF 7.12.2021
31	Onaybekova Nazgul Moldaxanovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	517AF 7.12.2021

32	Onaybekova Nazgul Moldaxanovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Prof.stom	518AF 7.12.2021
33	Rui Isidro Falacho da Fonseca Almeida	Portugaliya,Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrası soatbay professori	Stomatologiya	terapevtik stomatologiya	08.02.2021 №91
34	Kxera Akshey	Hindiston	Oftal'mologiya	Oftal'mologiya	26.05.2021 №251
35	Sari Yarvinen	Finlyandiya,Jamoat salomatligi va SSTQ va jismoniy ma'daniyat kafedrası dotsenti	Jamoat salomatligi	Jamoat salomatligi va SSTQ va jismoniy ma'daniyat	16.02.2020-2021 y. №500
36	Skakova Ulpen Tulexanovna	Qozog'iston, S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Terapevtik stomatologiya	1.11.2021 №442 AF
37	Temurov Fazladin Turabaevich	Qozog'iston, Xodji Axmeda Yasavi nomidagi Kozok-Turk milliy universiteti	Davolash ishi	Jarroxlik stomatologiya	511yo AF 7.12.2021
38	Tereza Shuryany-Yanechek (Teresa Szupiany-Janczek)	Ispaniya, Assistant Professor, Specialist in Endodontics and Restorative Dentistry	Stomatologiya	Endodontiya	530 AF
39	Tisshenko Andrey Leonidovich	Rossiya, 1 - son terapevtik yo'nalishidagi fanlar kafedrası soatbay professori	Terapiya	terapevtik yo'nalishidagi fanlar	02.02.2021 №20
40	Fomenko Irina Valeryevna	RF, Volgograd davlat tibbiyot universiteti	Stomatologiya	Yuz-jag jarroxlighi	02.02.2021 y.№125
41	Xorxe Dominges Peres (Jorge Domínguez Pérez)	Ispaniya,EUO-ADEMA	Stomatologiya	Endodontiya	520AF 7.12.2021
42	Xuan Rafael Diaz Samoesa	Italiya, Turin politexnika universiteti	Fizika	Biofizika	15.03.2021 № 159
43	Xezer Maknemar	AQSh,Xorijiy tillar	Xorijiy tillar	Filologiya	20.10.2021 № 432
44	Chorshanbaeva Shirin Iloxomovna	O'zbekiston,Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrası soatbay assistent	Stomatologiya	terapevtik stomatologiya	02.02.2021 №91
45	Shatmanov Suynali Toktonazarovich	Qirg'iziston,Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrası jamoatchilik asosida professor	Gistologiya va tibbiy biologiya	Gistologiya va tibbiy biologiya	02.02.2021 №94

46	Yusell Ferrux	Turkiya,Anatomiya kafedrası jamoatchilik asosida professor	Anatomiya	Anatomiya	06.02.2021 №84
47	Jawaid Isham	Pokiston, Rashid Latif stomatologiya kolleji, Smile Train	Davolash ishi	Yuz jag' jarrohligi	07.12.2021 y.№525
48	Jun Young Paeng	Janubiy Koreya, Samsun Medikal Center	Davolash ishi	Bolalar yuz-jag' jarrohligi	07.12.2021 y. №735
49	Maria Pia Foschini	Italiyaning Boloniya universiteti professori	patologoanatom	onkologiya	670 buyruk
50	Mike G. Martin	AQShning G'arbiy saraton markazi va ilmiy tekshirish instituti t.f.d., vrach-onkolog	Onkologiya	Onkologiya	01.11.2021 № 442
51	Sakellion Dimitrios	Gretsiya, 3-son terapevtik yo'nalishidagi fanlar kafedrası dotsenti	Psixiatriya	terapevtik yo'nalishidagi fanlar	№344

Institut vakolatiga kiradigan o'quv, ilmiy, amaliy va ishlab chiqarish yo'nalishlarini birlashtirish respublika stomatologik xizmatini davlat talablari va xalqaro hamjamiyat tomonidan belgilangan zamonaviy tendentsiyalar asosida tashkil etishga imkon beradi.

Zamonaviy talablarga javob beradigan va ilm-fan va ta'limning tibbiyot tizimini rivojlantirish uchun poydevorga ega bo'lgan institutni rivojlantirish va qo'llab – quvvatlash mamlakatning innovatsion rivojlanishining zarur sharti, jamiyatning jadal iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishining asosidir.


Keltirilgan masala bo'yicha qaror loyihasi:

1. Xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda pedagoglar va iqtidorli talabalarini kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish kurslar qamrovini oshirilsin;
2. Xorijiy hamkor OTM yetakchi professorlarini doimiy ishga taklif etish choralari ko'rilsin;
3. Akademik almashinuv dasturlari doirasida xorijiy talabalarni institut mutahassislik kafedralarida malaka oshirishlari ta'minlansin;
4. Institut pedagoglari va iqtidorli talabalarini xorijiy nufuzli anjuman va tanlovlarda ishtiroki oshirilsin.

2-masala. TDSIning iqtidorli yoshlarini innovatsion va ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish va ularni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017y PQ-2909-sonli qarori ijrosi bo'yicha)

Ma'ruzachi: Iqtidorli talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i M.Z.Atadjiyeva

ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБАЛАР БИЛАН ИШЛАШ БЎЛИМИНИ БОШҚА БЎЛИМЛАР БИЛАН УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ



Иқтидорли talabalar bo'limining tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasini "Ta'lim to'g'risida" qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi OO'MTV "Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risida "Nizom" ni tasdiqlab 1997 yil 10 iyul 185- sonli buyrug'iga asosan barcha oliygohlarda iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi tashkil etilgan.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi faoliyatini boshlagandan buyon institutimizning talaba yoshlari orasidan iqtidorli talabalarni turli tanlovlarda qatnashishiga yo'naltirib, ularni Respublika, xalqaro, institut miqyosida taniltirib, tibbiyot sohasida Davlatimizni rivojlanishiga xissa qo'shishga undamoqda.

Iqtidorli talabalarni aniqlashni 1-bosqich talabalari orasida boshlab, 2 bosqichdan ularning boshlang'ich bilimlarini hisobga olib, psixologik va pedagogik testlar orqali qobiliyatini rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlandi.

Institut talablariga asoslanib, iqtidorli talabalarni ilmga va turli tanlovlarga qiziqtirib kelgusida kadrlar zaxirasini tayyorlashda qatnashishadi.

Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash dasturlarini tuzishda talabalarni fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishi, chet tilini puxta egallashi, kurs va bitiruv ishlari va magistrlik dissertatsiyasini yozishda kompyuter va chet tilidan samarali foydalanishi, ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlab, fikr va muloxazalarni bildirib, amalda tadbiq etib, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunib uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson etib shakllantirishdir.

IQTIDORLI TALABALARNI MAQSADLI TAYYORLASH VAZIFALARI

1. Iqtidorli talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
2. Malakali professor - o'qituvchilarni iqtidorli talabalar bilan individual ishlashga jalb etish;
3. Iqtidorli talabalar bo'yicha respublika banki va monitoringini shakllantirish;
4. Buyurtmachilar talablarini qondiruvchi malakali, har tomonlama kamol topgan kadrlarni tayyorlashga xissa qo'shish.

KAFEDRALARDAGI TALABALAR ILMIY TO'GARAKLAR.

Institutimizda faoliyat ko'rsatayotgan 31 ta kafedrada 21 ta talabalar ilmiy to'garaklari ish olib bormoqda (O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 8 avgust № 237 buyrug'i). Iqtidorli talabalarning ilmiy izlanishlarini samarali amalga oshirish maqsadida barcha to'garakning yo'nalishlari, maqsad, vazifalarini o'zida qamrab olgan ish rejasi mavjud.

IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASH BO'LIMI MAS'ULLIGIDA O'TKAZILADIGAN NUFUZLI TANLOVLAR

1. Bakalavr va magistrlar uchun tibbiyot yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tanlovi.
2. Oxirgi 2 ta kurs bakalavrlari orasida Ibn Sino va Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyalari tanlovi.
3. Talabalar Respublika fan olimpiadasi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT STIPENDIYASI G'OLIBI

2021-2022 o'quv yilida Ortopedik stomatologiya yo'nalishi 2 kurs magistranti: Mirxusanova Ra'no Sergey qizi. **Ilmiy rahbari:** t.f.d. Shomurodov Qaxramon Erkinovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IBN SINO NOMLI DAVLAT STIPENDIYASI G'OLIBI

Stomatologiya fakulteti 4-kurs talabasi: Olimjonov Kamron Jasur o'g'li
Ilmiy rahbari: t.f.d. Shomurodov Qaxramon Erkinovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISLOM KARIMOV NOMLI DAVLAT STIPENDIYASI G'OLIBI

Stomatologiya fakulteti 4-kurs talabasi Lalayan Angelina Ivanovna.
Ilmiy rahbari: t.f.n. Qurbanova Sanobar Yuldashevna.

TALABALAR RESPUBLIKA FAN OLIMPIADASI QUYIDAGI FANLARDAN O'TKAZILADI

Mikrobiologiya - 2 kurs talabalari
Normal fiziologiya - 2 kurs talabalari
Patologik fiziologiya - 3 kurs talabalari
Xirurgiya - 5-6 kurs talabalar

Terapiya - 5-6 kurs talabalari

Keltirilgan masala bo'yicha qaror loyihasi:

1. Kafedrada faoliyat yuritayotgan to'garaklarning samaradorligi oshirilsin va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin;
2. Talabalarni ilm-fanga qiziqtirish talabalik davridan boshlanishi kerak, shu sababli kafedralarda tuzilgan talabalar ilmiy to'garagi va innovatsion guruhlarni faoliyati jadallashtirilsin;
3. Fan bo'yicha iqtidorli talabalar kafedralarda aniqlansin, kafedra majlislarida ularni muhokama etilsin va iqtidorli talabalar bo'limiga hujjatlar topshirilishi yo'lga qo'yilsin;
4. Fan bo'yicha xalqaro talabalar olimpiadalarga iqtidorli talabalar va ilmiy rahbari bilan qatnashishi yo'lga qo'yilsin.